

O‘ZBEKISTON TELEVIDENIESINING SHAKLLANISH MASALALARI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ilmira Nazrullaevna RAHMATULLAEVA

San’atshunoslik fanlari nomzodi, dosent

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti doktoranti

Tashkent, Uzbekistan

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ, ПРОБЛЕМЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОГО ТЕЛЕВИДЕНИЯ

Ильмира Назруллаевна РАХМАТУЛЛАЕВА

Кандидат искусствоведения, доцент

Докторант Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

DEVELOPMENT ISSUES, PROBLEMS AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK TELEVISION

Ilmira Nazrullaevna RAKHMATULLAEVA

Candidate of Art History, Associate Professor

Doctoral Student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

UDC (UO‘K, УДК): 654

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Rahmatullaeva I. N. O‘zbekiston televideniesining shakllanish masalalari, muammolari va rivojlanish tendensiyalari. // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 236-254.

<https://doi.org/10.36078/1704096608>

Received: October 28, 2023

Accepted: December 17, 2023

Published: December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotasiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda televideniening shakllanish jarayonlariga evolyusion nazar solingan va u davr kesimida o‘rganilgan. Tarixiy tajribaga ko‘ra, yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan ommaviy axborot vositasini tizimga kiritish ijtimoiy ahamiyatga ega ma‘lumotlarni berishning tezkorligi va uni texnik ishlab chiqish borasida har doim ilg‘or qadam bo‘lgan. Biroq yangi ommaviy kommunikasiya vositasi, ayniqsa, o‘z taraqqiyotining boshlang‘ich bosqichida, o‘z imkoniyatlari va tabiatiga xos bo‘lgan usullarni namoyon qilolmaydi. XX asr boshlarida radio o‘z qadamlarini boshlaganida, materialni taqdim etishning “gazeta shakllaridan” foydalangani singari, televidenie ijtimoiy vazifalarni bajarayotgan yangi kommunikasiya vositasi sifatida radio tajribalariga suyandi. Sobiq SSSR ommaviy axborot vositalari tizimida televidenie o‘zining dastlabki davrida naqadar jozibali texnik vosita sifatida jamoatchilikning hayratini uyg‘otgan bo‘lsa, davlat tashviqoti vositasiga aylanganiga qadar uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Maqolada XX asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan milliy televideniening zamonaviy media makoni, zamonaviy ommaviy kommunikasiyalar tizimi, shuningdek, jamiyatning siyosiy hayoti kontekstida shakllanish va faoliyat ko‘rsatish xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, o‘zbek televideniesi ko‘rsatuvlari janr xususiyatlariga ko‘ra tadqiq etilgan, televidenie tarixidagi eng yaxshi loyihalar tahlilga tortilgan. Yangi janrlar va teleko‘rsatuv formatlarini o‘zlashtirishning ma‘naviy-etik jihatlari, shuningdek, ularning auditoriyaga o‘ziga xos ta’sirlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: televidenie; san’at; jamoatchilik; ommaviy axborot vositasi; mafkura; telejurnalistika; videoqator; radio; teleklub; boshlovchi.

Аннотация. В данной статье изучен процесс эволюционного формирования телевидения в Узбекистане. Согласно историческому опыту включение в систему нового, ранее отсутствовавшего средства массовой информации всегда являлось передовым шагом в части оперативности передачи социально значимых данных и ее технической разработки. Однако новое средство массовой коммуникации, особенно на начальном этапе своего развития, не может продемонстрировать свои возможности и методы, органически ему присущие. В начале XX века, когда радио сделало свои первые шаги, телевидение опиралось на опыт радио как на новое средство коммуникации, выполняющее социальные задачи. В системе средств массовой информации бывшего СССР телевидение прошло долгий путь до того, как в первые годы своего существования оно стало средством государственной пропаганды, чем вызывало восхищение общественности как привлекательное техническое средство. В статье исследованы современное медиaprостранство национального телевидения, возникшее в середине XX века, современная система массовых коммуникаций, а также особенности формирования и функционирования в контексте политической жизни общества. Также были исследованы передачи узбекского телевидения по жанровому характеру, проанализированы лучшие проекты в истории телевидения, изучены духовно-этические аспекты освоения новых жанров и форматов телевидения, а также их специфическое влияние на аудиторию.

Ключевые слова: телевидение; искусство; общественность; средства массовой информации; идеология; тележурналистика; видеoinформатор; радио; телеклуб; ведущий.

Abstract. This article evolutionarily studied the process of forming television in Uzbekistan. According to historical experience, the inclusion of a new, previously absent media in the system has always been an advanced step in terms of the efficiency of the transfer of socially significant data and its technical development. However, the new medium of mass communication, especially at the initial stage of its development, cannot demonstrate its capabilities and methods characteristic of nature. At the beginning of the 20th century, when radio began its steps, as well as the use of "newspaper forms" of presentation of material, television relied on the experience of radio as a new means of communication that performs social tasks. In the media system of the former USSR, television went a long way before in its early years it became a means of state propaganda, which aroused public admiration as an attractive technical means. The article explores the modern media space of national television, which arose in the middle of the 20th century, the modern system of mass communications, as well as the peculiarities of the formation and functioning in the context of the political life of society. The programs of Uzbek television by genre character were also investigated, the best projects in the history of television were analyzed. The spiritual and ethical aspects of the development of new genres and formats of television, as well as their specific influence on the audience, have been studied.

Keywords: television; art; public; mass media; ideology; television journalism; video informant; radio; television club; presenter.

Kirish. Televidenie XX asrda ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida paydo bo'ldi va shu asrning o'zidayoq milliy madaniyatning o'ziga xos va mahsuldor xazinasiga, mazmunan va

ifoda vositalari jihatidan rang-barang va mukammal qudratli san'at turiga aylandi. San'atning juda ko'p turlari, turli badiiy an'analarni o'zida qamrab olgani holda, u jamiyat rivojiga, ilg'or progressiv g'oyalarning targ'ibotiga, umuminsoniy qadriyatlar, dunyoviy madaniyat ideallari bilan chambarchas bog'liq ma'naviyatning tiklanish jarayonlariga munosib hissa qo'shdi. Televideniye jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatishning faol shakllaridan biri sifatida ma'naviy jihatdan yetuk yosh avlodni shakllantirish, uni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashgina emas, aholining barcha ijtimoiy qatlamlarini axborot bilan ham ta'minlash, ma'rifiy dasturlari bilan olam, jamiyatni bilish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek dam olish onlarini xushkayfiyat bilan o'tkazishlari uchun juda qulay texnik vositagina bo'lib qolmay, millat qalbi, ruhiyati, shuuriga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilish singari vazifalarni ham qamrab oldi.

Televideniye ning 1956–yildan boshlangan faoliyati hamisha jamiyatda kechgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida bo'ldi va bu tabiiydir. Ommaviy axborot vositasi sifatida u mafkuraning kuchli bosimi sharoitida faoliyat ko'rsatdi. Jamiyatda kechadigan har qanday voqea-hodisalar uning sezgir, ta'sirchan ko'zguvidan o'tarkan, davrning talab va ehtiyojlariga nihoyatda ta'sirchan bo'lgan televizion janrlarga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ijodkorlarning jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan o'z fikrlarini bildirishlari turli davrlarda turli janrlarning yetakchilik qilishiga olib keldi.

Asosiy qism. O'zbek televideniyesidagi jarayonlar ma'lum bir davrda nihoyatda yuqori sur'at kasb etgani holda, ba'zi bir davrlarda turg'unlikka yuz tutdi. Bunday holat ko'rsatuvlarning mavzusi, uslubi, kompozitsiyasi, ijodkorlarning ish uslublarida ham o'z muhrini qoldirdi.

O'zbekistonda televideniye ning ish boshlashi jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida juda katta voqea bo'ldi. Toshkent telestudiyasi o'z faoliyatini boshlagan yillar mamlakatda yasama ko'tarinkilik kayfiyati hukm surayotgan, soxta shiorlar avj olgan, ayniqsa, yoshlar o'rtasida romantik zavq-shavqqa berilish kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Ijtimoiy-siyosiy voqelikdan kelib chiqqan bu jarayonlarni tahlil qilishda xalqimiz madaniy hayotiga kirib kelgan yangi texnik vosita — o'zbek televideniyesining kommunistik mafkura sharoitida shakllanganiga qaramay, xalqimiz ma'naviy hayotida olamshumul ijobiy voqea bo'lganini ta'kidlash lozim.

1956-yili tashkil bo'lgan Toshkent TVsining asosiy vazifalari Kommunistik partiya va Sovet davlatining ichki va tashqi siyosati masalalariga bag'ishlangan ko'rsatuvlarni tayyorlash, sobiq ittifoq xalqlari san'ati va madaniyati yutuqlarini, kommunistik qurilish, ilmiy va texnik bilimlarni targ'ib qilish, yoshlarni yetakchi mafkura ruhida tarbiyalash bo'lgani bois dasturlar asosini sho'ro mafkurasi, sovet turmush tarzini targ'ib qilish, "yangi inson tarbiyasi" bilan shug'ullanish va bunda, albatta, G'arb ma'naviy qadriyatlarini

tanqid qilish tashkil etgan. Bu yo‘nalishlar nafaqat ko‘rsatuvlar mundarijasini, balkim dasturlarni ishlab chiqish, ularning tuzilishi, yo‘nalishlari, auditoriya bilan munosabatga kirishish usul va shakllarini belgiladi. Natijada telejurnalistika, butun sovet matbuoti singari qat‘iy mafkuraviy qoliplar chegarasidan chiqa olmadi, marksizm–leninizm g‘oyalari barcha dasturlar va janrlardan qizil ip bo‘lib o‘tdi. Toshkent telestudiyasining shakllanish jarayonida ham sho‘ro mafkurasi ko‘rsatmalari asosiy rol o‘ynadi va buning natijasida “moviy ekran – mehnatkashlarning yuksak partiya tribunasiga aylandi. 1956–yil dekabrda studiyaga ishchilar, mexanizatorlar, ishlab chiqarish rahbarlari, olimlar, shifokorlarni taklif qilish boshlandi. Har kuni oqshomda millionlab tomoshabinlar mashhur, o‘z ishining ustalari bilan uchrashib, ular orqali hayotning nafasini his qila boshladilar” (5, 29).

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, o‘sha yillar televideniyesi faqat jonli efirdagina faoliyat yuritardi. Uning kundan-kun har bir xonadonda paydo bo‘lishi bugungi kunda Internet mo‘jizasi, kompyuter mo‘jizasidan ko‘ra qudratliroq rezonans bergan edi. Kichik hajmdagi, suv bilan to‘ldirilgan linza orqali ko‘rish mumkin bo‘lgan oq-qora televizorlar aholi o‘rtasida juda katta qiziqish uyg‘otdi. Sovet televizion texnikasining o‘ziga xos kashfiyoti bo‘lib, “KVN-49” nomi bilan yuritilgan bu mo‘jizani xarid qilish ham oson emasdi. Kimningki xonadonda u paydo bo‘larkan, butun mahalla cheksiz havas, faxr, iftixor bilan uni tomosha qilishga oshiqar, o‘z taassurotlarini yanada ko‘pchilikka yetkazishga harakat qilishardi.

Ilk ko‘rsatuvlarni tayyorlashda TV imkoniyatlarining yosh mutaxassislar tomonidan to‘la anglanilmagani, tajriba va mahoratning yetishmasligi sabab dastlabki davrda dasturlarda maishiy hamda vatanparvarlik mavzulari yetakchilik qilgan, Sho‘ro mafkurasi g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan badiiy filmlar namoyish etildi. O‘zbek televideniyesi tarixida ilk Videospektakl, teleserial muallifi sifatida qolgan M. Mahamedov o‘sha paytlarni xotirlab shunday yozadilar: “Dastlab televidenie dargohida ish boshlagan teatr rejissyorlari A. Muhamedov, B. Xo‘jaev, V. Raykova, M. Asadullaev, M. Yunusov, H. Aliev, A. Haydarovlar asr mo‘jizasining sir-asrorlarini bilib olgunga qadar ancha qiynalganlar, qo‘rqanlar. Atak-chechak qilayotgan bola ko‘p yiqilganiday, bular ham adashganlar, dovdirab pulda nima qilarini bilmay qolganlariga ko‘p guvoh bo‘lganmiz” (7, 23). Buyuk teatr rejissyori Toshxo‘ja Xo‘jaev ham umrining so‘nggi yillarida televideniya hamkorlik qilib, spektakllar sahnalashtirgan, lekin shunday iste‘dodli shaxs ham spektaklni efirga jonli uzatayotganda pulda o‘tirib shoshib qolgan.

“Televidenie xodimi eng avvalo ma‘naviy pok va samimiy bo‘lishi, unga topshirilgan vazifalar esa yuksak did va mahorat bilan ado etilishi belgilab qo‘yilgan edi. Tabiatida ham, ijodida ham, individuallik alohida ajralib turishi, kiyinish odobi, muomala madaniyati, qolaversa, tafakkurining boyligi o‘zgalarga o‘xshamasligi talab etilib, tezkorlik va kashfiyotchilik ruhi

bo'lmasa, bunday mutaxassis, televidenie uchun yaroqsiz hisoblanar edi" (1, 201). O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi E. Musaev shunday degandi: "O'shanda ham, hozir ham shunday deb o'ylayman: ekran nihoyatda muqaddas joy. Bir umr o'zimni unga loyiq deb bilmaganman. Ekranga to'g'ri kelgan odamni chiqarib bo'lmaydi. Hatto televideniega ma'mur bo'lib ishga kirmoqchi bo'lganlar ham, albatta, oliy ma'lumotli bo'lishi shart edi. Uni bir-ikki oy oldimizda olib yurib, odobi, yurish-turishini kuzatganmiz. Keyin o'zimizning O'rta Osiyo televidenie va radio xodimlarining malakasini oshirish kurslariga yuborardik. U yerdan kelganidan so'ng Moskvaga, malaka oshirish kurslariga jo'natardik. Faqat shundan keyingina bu odam muharrir, rejissyor assisenti sifatida ish boshlashi mumkin edi. Biz Ekranni har qanday orzu-havaslardan yuksak joy, deb qaraganmiz. Shuning uchun obro'yi baland edi" (9, 44–45).

Albatta, bu jarayonlarda MT ko'rsatuvlaridan o'rganish o'ziga xos tajriba berdi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, SSSR mafkuraviy davlat bo'lib, televidenie millionlab ommaga axborot uzatish, uni tarbiya qilishga yo'naltirilgan targ'ibot, ishlari uchun nihoyatda qulay ommaviy axborot vositasi vazifasini bajarardi. Tashkil topganining dastlabki kunlaridanoq u katta auditoriyaga kommunistik mafkurani, uning g'oyalarini olib kirdi. Ilk yoshlar ko'rsatuvlarining tahlili ham televideniени targ'ibot va tashviqot quroliga aylantirish juda erta boshlanganini ko'rsatadi. Bu jarayon 1957-yilning yozida Moskvada o'tkazilgan Jahon yoshlari va studentlarining festivali oldidan tayyorlangan ko'rsatuvlarda ham ko'zga tashlanadi (8).

Bu yillarda mamlakatda televizior ishlab chiqish sur'ati ham osha bordi: 1957-yilda 1 million televizior ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1960-yilga kelib, 4.8 million xonadonga televizior kirib borgan. 50-yillar oxiriga kelib, hududlarda ham televizion markazlar qurilishi faollashdi. 1955-yildagi "SSSRda teleeshittirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonga ko'ra, 1956-yildan 1958-yilgacha SSSRda 20ta televizion markazlar qurilishi kerak edi (mamlakat bo'ylab o'ndan bir oz ko'proq televizion markazlar mavjud edi). 1964-yilda mamlakatda 84ta telemarkaz, 1965-yilda 121ta televizion markaz ishga tushirildi. Shunga qaramay, dastlabki davrda telemarkazlar Markaziy televidenie faoliyati bilan bog'liq bo'lib o'zining mustaqil ko'rsatuvlariga ega emasdi, ko'p hollarda kinofilmlar namoyishi bilan cheklanardi.

Televideniениning o'zi ham rivojlanib borishi asnosida tomoshabinlarga mamlakat tarixi, uning iqtisodiy ahvoli, xalqlarining urf-odatlarini masalalarini taqdim qilarkan, marksistik-lenincha ta'limotlarga asoslanishda davom etardi. O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, televidenie faxriysi Elbek Musaev bu davrni eslaganida shunday voqealarni so'zlagandi: "ko'rsatmalar shu qadar ko'p va siyosiy ahamiyatga ediki, biz ularga itoat etishga majbur edik. Masalan, yangi yil ko'rsatuvlarimiz bal ko'rinishida bo'lib, yosh yigit-qizlarning simfonik orkestrlar sadolari ostida

raqsga tushishlari bilan boshlanardi. Milliy urf-odatlar o'rniga "komsomol to'ylar"i singari an'analar singdirila boshlangandi. Milliy raqslardan ko'ra millatimiz tabiatiga u qadar ham mos kelmaydigan balet ko'rinishlariga ham ko'proq o'rin berishga majbur edik. Bu juda ham ijobiy holat emasligini bilib turardik, chunki televizor oila davrasida tomosha qilinadigan a'molga aylanib borayotgan, tomoshabinlar orasida turli yoshdagi kishilar — keksalar bor edi, milliy an'analardan kelib chiqqan holda bu chiqishlar ularning qadriyatlariga to'g'ri kelmasligini ham tushunardik (13). ko'rsatuvlarning hajmi ham ikki-uch soat arofiga davom yetishi mumkin edi. "Men qanday buyuk insonlar bilan uchrashganim hayajonini sizga yetkazib bera olmayman. Shostakovich, Pliseskaya, Vishnevskaya, Muxtor Ashrafi, Tamaraxonim bilan uchrashardim"deb xotirlaydi o'sha kunlarni Galina Melnikova (14).

1959-yil bo'lib o'tgan partiyaning navbatdan tashqari XXI s'ezdida "mamlakatda kommunistik jamiyat qurilishining yangi davri" boshlangani e'lon qilinib, "partiyaning g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarini kuchaytirish, mehnatkashlar, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning kommunistik dunyoqarashini ko'tarish, ularni mehnatga kommunistik munosabat, sovet vatanparvarligi va internasionalizm ruhida tarbiyalash, odamlar ruhiyatida kapitalizm, burjuaziya mafkurasi illatlarini bartaraf qilish" vazifalari kun tartibiga qo'yilgach, ularni hal qilish maqsadida qator ko'rsatuvlar tayyorlangan.

1959-yil 26-yanvarda namoyish etilgan "yoshlar klubi" (muharrir – N. Teplyakova) ko'rsatuvining muqaddimasi P. Chaykovskiyning "Romeo va Juletta" asariga yozgan musiqasi bilan boshlangan. "Turnalar uchmoqda" (rejissyor – M. Kalotozov) filmidan berilgan parcha ko'rsatuvning keyingi ruhini belgilash bilan birga, voqealar rivojiga turtki bergan. Urush qanday bo'lishidan qat'iy nazar, insoniyat boshiga cheksiz kulfatlar yog'diradi, u sira ham oqlab bo'lmas, insonning insonga nisbatan qilishi mumkin bo'lgan eng yomon jinoyatlaridan biridir. "Urushning oqibatlari, — deb yozadi L.Tolstoy, — har doim umumiy qayg'u va umumiy koorupsiyadir", "urushning yomonligi va tinchlik farovonligi odamlarga juda yaxshi ma'lum, chunki biz odamlar bilan uchrashganimizda eng yaxshi tilagimiz "sizga tinchlik" so'zlari bo'ladi" (7). Ikki yoshning muhabbati, shaxsiy tuyg'ulari, taqdiri millionlar boshiga tushgan kulfat tufayli barbod bo'lishi yoshlarning qalbini urushga bo'lgan nafrat bilan to'ldirsada, mavzu atrofidagi fikr-mulohazalar turli-tumanligiga erishilgan. Ayonki, bu ko'rsatuvlar jonli uzatilgan, ssenariylar oldindan yozilgan va ishtirokchilar ularni navbatma-navbat ijro etganlar. Buning ustiga shu ko'rsatuvning qator sonlarida aynan rus xalqining yetakchiligiga urg'u berilgan filmlar, rus musiqasi namunalari tayanilgan. Haqiqatan ham, 1937-yilda Cho'lpon, Qodiriy, Fitrat singari millat buyuklarini yo'qotgan, ikkinchi qatag'on to'rida milliy ildizlari qirqib ulgurilgan O'zbekiston mustamlakachilik siyosati botqog'ida edi. Umuman bu yillarda

yaratilgan filmlarning deyarli hammasi oynai jahon orqali namoyish etilgan, ularda sovet xalqining ikkinchi jahon urushida erishgan buyuk g'alabasi ortida aynan rus xalqining xarakteri katta o'rin tutganiga urg'u berilgan va bu mavzu ko'rsatuvlar mundarijasiga ham singdirilmay qolmagan.

KPSS Markaziy Komitetining 1960-yil 29-yanvardagi "Sovet televideniyesining istiqboldagi rivojlanishi haqida"gi qarorida "televidenie mamlakat hududi va xorijdagi voqealar, shuningdek, sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, texnika, adabiyot, sport yutuqlari to'g'risida aholini xabardor qilishning asosiy usullaridan biriga aylandi", deya qayd etilgan edi.

Qaror, xususan, quyidagi vazifalarni o'z ichiga olgan: Vazirlar, partiya va jamoat tashkilotlari rahbarlari, yetakchi sanoat, qishloq xo'jaligi vakillari tomonidan televidenie orqali muntazam chiqishlarni amaliyotga joriy etish;

- bolalar uchun translyatsiya dasturlari (kuniga kamida bir soat);

- radioeshittirish tarmog'ida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qiluvchi dasturlar muhim o'rin egallashi kerak edi;

- sanoat telestudiyalarni plyonkada dasturlarni suratga olish yoki magnit lentaga yozib olish imkonini beradigan uskunalar bilan ta'minlashi kerak edi;

- radio va televidenie Davlat qo'mitasiga televizion filmlar ishlab chiqarish uchun o'z kinostudiyasini yaratish topshirildi;

- Ittifoq va avtonom respublikalarda ikkinchi dasturlarning ishini tashkil etish, shuningdek, kunduzgi eshittirishni joriy etish zarur edi;

- markaziy va mahalliy matbuot o'quvchilarni televidenie faoliyati to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilishi, teleko'rsatuvlar sharhlarini nashr etishi, shuningdek televizion tanqidni rivojlantirishi shart deb belgilanib qo'yildi.

Bu partiya qaroriga asosan Moskva, jumladan, O'zbekiston televideniyesi mamlakat ichkarisida ham, xorijda ham bo'lib o'tgan muhim voqealar, hodisalarni keng yoritishga harakat qildi. Xususan, O'zbekiston va butun Ittifoq hayoti haqidagi hikoyalar mazmun va g'oya jihatidan ikki davrga bo'lingan, unda inqilobgacha bo'lgan hayot, xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy hayoti faqat qora ranglarda ko'rsatilar va aksincha oktyabr inqilobidan keyingi davr faqat ijobiy ranglarda namoyish etilardi.

1958-yilda Bryusselda "Ekspo-58" xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tdi va aynan shu yerda televidenie jurnalistlari G'arb televideniyesi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Evrovedineie mamlakatlarida bu vaqtga kelib, ko'rsatuvlarni grafik bo'yicha tayyorlash va xronometrajga rioya qilib tayyorlash urfga kirib bo'lgan edi. Ko'rsatuvlarda ko'proq reportajlar bo'lishiga e'tibor berila boshlanganini, xususan ko'rsatuvlarda dialogga qurilgan janrlar: intervyu, suhbat, munozaradan foydalanila boshlangani, ko'ngilochar ko'rsatuvlar ko'plab tayyorlana boshlanganidan xabardor bo'ldilar. Xronometraj masalasi hali o'zbek televideniyesida hal bo'lmagani 1962-yilda "Yoshlik" studiyasida

mashhur qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasi asosida tayyorlangan telespektaklda ham ko'zga tashlanadi.

Ushbu davr ko'rsatuvlari tahlil qilinganida, shuni kuzatish mumkin. 50-yillarning oxiriga kelganda, G'arb televideniyesining Markaziy figurasi jurnalist bo'lgan bo'lsa, Sovet Ittifoqida televideniening bosh qahramoni bu diktor edi. Bu jarayon asta-sekin o'zgarganini quyidagi misollar orqali kuzatish mumkin. Ekranida yozuvchi, adabiyotshunos Irakliy Luarsabovich Andronikovning chiqishlari jurnalistlarni murakkab mavzularda ham oddiy, sodda tilda so'zlashga o'rgatdi (11, 45).

Umuman, bu yillar uchun xos bo'lgan jihatlar quyidagichadir. Televidenie ko'rsatuvlarini o'rganish asnosida o'zbek teleijodkorlari bu ko'rsatuvlarning milliy analoglarini yarata boshladilar va xalqimizning milliy ruhiyatiga mos asarlar yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Bir guruh yosh teleijodkorlarning tashabbusi respublika komsomol tashkiloti plenumida qo'llab-quvvatlanishi natijasida 1961-yilda tashkil topgan "Yoshlik" studiyasining faoliyati navqiron avlod tarbiyasida TVning qudratli qurol ekani o'z tasdig'ini topgan, shu sababli "yangi davr" egalarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa mafkuraning kun tartibidagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan yillarga to'g'ri keladi. Toshkent telestudiyasida bolalar va yoshlar uchun eshittirishlar redaksiyalarining alohida faoliyat ko'rsatadigan ikki redaksiyalarga ajralgandan so'ng, tashkil topgan ushbu studiyada auditoriya bilan ishlashning yangi shakl va uslublarini izlash harakatlari boshlanib ketdi. Shunday izlanishlardan biri "Otalar so'zi" nomli sinov ko'rsatuv bilan bog'liq. Nafaqat g'oyaning yangiligi, g'oya o'z ifodasini topgan shaklning o'ziga xosligi, shakl va mazmunning mutanosib uyg'unlashuvi asosiga qurilgan "Otalar so'zi" nomli dastlabki sinov ko'rsatuvning (yanvar, 1962) kutilmagan yutug'i uning asrlar davomida pishib yetilgan xalq donishmandligi zaminiga qurilganidir. Zotan, har bir inson, ayniqsa, yoshlar ijtimoiy-kommunikativ axloq normalari va o'zlarigacha yashab o'tgan ajdodlar to'plagan ma'naviy boyliklar xazinasidan, bebaho mezonlardan saboq olishga moyildirlar. Xalq ertaklari, mif, afsonalar, qo'shiqlar — bularning hammasi nafaqat bugun, balki hamma davrlarda ham insoniyatning ideal siymo haqidagi orzu-intilishlarining badiiy talqini bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ularda inson o'z hayoti davomida duch keladigan — yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, yuksaklik va tubanlik, haqiqat va yolg'on haqidagi tushunchalar bilan yuzma-yuz keladi.

Kichik epik asarlarni teleinstsenerovka qilish odat tusiga kirgan davr yosh ijodkor E. Karimov qalamiga mansub "Maslahat" nomli hikoyaning sahnalashtirilishi, ayonki, uning odatiy ko'rsatuvlar darajasidan ko'tarila olmasligiga olib kelar edi. Ijodkorlarning tavsiyasiga ko'ra, ko'rsatuvga kiritilgan otaxon siymosi nafaqat ko'rsatuv kompozitsiyasini o'zgartirdi, shuningdek, zimmasiga yangi vazifalarni ham yukladi. Ko'rsatuv o'zining shakllanish jarayonida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi:

1-bosqich 1962–1963-yillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yillarda “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvining mazmun mundarijasi kichik maktab yoshidagi bolalar tarbiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu ijodiy jarayon unchalik ko‘p davom qilmadi.

2-bosqich 1964-yildan boshlanib tomoshabinlar maktublari asosida shakllandi va ko‘rsatuvga o‘smirlar mavzui olib kiritilgani bilan xarakterlanadi. O‘smirlar hayotiga bag‘ishlangan voqealardan tashkil topgan qator ko‘rsatuvlarda mavzu doirasi kengaygani kuzatiladi. Otaxon tomonidan otalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘ta jiddiy masalalarga e‘tibor qaratildi, voqeahodisalarga munosabat orqali televideniya yoshlarni qiynayotgan muhim muammolar ham tilga olinib boshlandi.

3-bosqich 1965-yil yanvardan boshlab tayyorlangan ko‘rsatuvlarda ko‘zga tashlanadi. Garchi mavzuda katta o‘zgarishlar yuz bermagan bo‘lsa-da, ijodkorlarda badiiy mahoratning ancha o‘sgani kuzatiladi. Ko‘rsatuvlarda murakkab hayotiy lavhalar, dramatik ko‘rinishlardagi ziddiyatlarning keskinlashgani yorqin namoyon bo‘ldi.

O‘smirlar hayotiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar farzandlar va kattalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni to‘laqonli ochishda syujet va kompozisiya mukammalligini asrab qolish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu holat sabab “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvini bir voqea asosiga qurilgan yaxlit bir asar shakliga keltirildi. 1965-yildan boshlangan bu davr keyinchalik ko‘rsatuvning tomoshabinlar xatlari asosida tayyorlanishiga, natijada uning hayot muammolari bilan yanada yaqinlashtirilishiga, eng muhim jihat – TV va auditoriya o‘rtasida aloqaning mustahkamlanishiga olib keldi.

Ko‘rsatuvning 1965-yil 24-yanvardagi sonida ta’kidlanishicha, oradan o‘tgan bir oy davomida otaxon nomiga mingdan ziyod xat kelgan. Yaxshi ko‘rsatuvlar taqdirida bo‘lgan voqea “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi”da ham yuz berdi, vaqt o‘tgan sayin ko‘rsatuvning auditoriyasi ham kengayib bordi. Kelgan maktublar ortida minglab odamlar taqdiri, quvonch va tashvishlari mujassamligini yaxshi tasavvur qilgan ijodkorlar ular asosida yangidan-yangi mavzularni qalamga ola boshlashdi.

4-bosqich 1965-yil 30-may kuni efirga uzatilgan ko‘rsatuvdan boshlanib, turkumning galdagi ijodiy faoliyatini aniqlab berdi. “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvini bir mavzu atrofida yaxlit bir asar shaklini oldi. O‘z onasi oldida farzandlik burchini bajara olmagan yigit haqida so‘z borgan ushbu ko‘rsatuvda otaxonning ishlash uslubiga ham yangilik kiritildi. Natijada asosiy e‘tibor dramatik ko‘rinishlar hamda tomoshabin mulohazalari bayoniga ko‘chirildi. Hikoyachi vazifasiga tomoshabinlarning o‘zlari ko‘tarilayotgani, otaxon endi hikoya qiluvchi emas, balki bu tasvirda bayon etilayotgan voqealarga munosabat bildiruvchi, adolat o‘rnatuvchi inson mas’uliyatini olayotgani ham ko‘rsatuvda o‘ziga xos yangi uslub sifatida namoyon bo‘ldi.

Bir oila tarixi – ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar

talqiniga qurilgan hikoya ortida tomoshabin yaxshilik va yovuzlik, halol va harom, burch va mas'uliyat singari azaliy qadriyatlar o'rtasidagi kurashni kuzatarkan, kontrast, ya'ni qarama-qarshi syujetlar orqali sahnadan-sahnaga otaxonni hayajonga solgan voqea-hodisa bilan ham tanishib, ham mushohada qilib o'rganib boradi. Otaxon siymosi orqali ijodkorlar hayotda adashgan, o'z onasi oldidagi farzandlik burchini unutgan, pul, boyluk ilinjida o'zining insoniy qiyofasini yo'qotgan ikki yoshni qoralaydilar.

Ko'rsatuvlarning keyingi sonlari ham tomoshabinlardan kelgan maktublar asosida tayyorlangan bo'lib, ularda tomoshabin yana bir oila atrofidagi voqealar bilan tanishib boradi. Lekin bu jarayonda nafaqat ijobiy, balki salbiy qirralar ham ko'zga tashlanadi. Ko'rsatuvning tomoshabin maktublariga asoslanishi "ekran-tomoshabin-ekran" munosabatlarini o'rnatishga yordam berish bilan birga unga xalq ishonchi, muhabbatini oshirgan bo'lsa-da, lekin juda ko'plab mutaxassislar ta'kidlaganlaridek (3, 111), ijodkorlarning mavzuni belgilashda maktublarga bog'lanib qolishlari ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ham ko'rsatdi.

"O'talar so'zi – aqlning ko'zi" ko'rsatuvi misolida televidenie xalqimiz ma'naviy hayotiga bevosita aralasha oladigan, maishiy munosabatlardan tortib, ijtimoiy mavzular, inson va oila, inson va jamiyat singari mavzularni yoritish bilan birga, ularga o'z munosabatini bildiruvchi tarbiyachi vazifasiga ham ko'tarildi.

60-yillarning oxiriga kelib, "O'talar so'zi – aqlning ko'zi" ko'rsatuvi O'zbekiston televideniesining dasturlaridan muhim o'rin egallagan eng nufuzli dasturlardan biriga aylandi. Ko'rsatuvning o'ziga xos muvaffaqiyati shundaki, unda o'zbek xalqi hayoti haqqoniy manzaralarda o'z aksini topdi. O'zbekiston televideniesida ma'naviy-tarbiyaviy xarakterdagi mavzular orqali millionlar auditoriyasiga murojaat qilish, ta'sir ko'rsatishning betakror uslubi kashf qilindi.

Yoshlarning ma'naviy kamolotiga katta e'tibor bergan, ularning xulq-atvorlarida uchrab turadigan salbiy xatti-harakatlarni kulgu, satira tig'i ostiga olgan yangi loyiha ham televideniening badiiy-tasviriy imkoniyatlari, aktyorlarning o'ziga xos ijro uslublari hamda satirik yozuvchilar qalamiga mansub asarlarning uyg'unlashuvi poydevorida xalqimizning eng sevimli dasturlaridan biri "Teleminiatyuralar teatri"ning dunyoga kelishiga zamin hozirladi. Ko'rsatuvning dasturlarda paydo bo'lishi tadqiqotchi O.Sultonovning "O'zbekiston televideniesida kulgi san'ati" nomli dissertasiyasida 1965-yil deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, uning dastlabki soni rejissyor M. Mahkamovning shahodat berishicha, 1963-yilning fevralida namoyish etilgan.

O'zTV dasturlarida "TMT"ga qadar tayyorlangan hajviy ko'rsatuvlar satirik telejurnallar shaklida edi. "Mushtum" satirik jurnali (adabiy-dramatik eshittirishlar Bosh redaksiyasi, 1957), "satira va yumor" ko'rsatuvlarida (bolalar va yoshlar redaksiyasi, 1959) yumorning inson hayotida tutgan o'rni haqida suhbatlar o'rin olgan bo'lib, ularda e'lon qilingan yumoristik asarlar aksariyat boshlovchi yoki mualliflar tomonidan o'qib berilgan. Hayot va

ijodiyot talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan yangi talqindagi “TMT”i ushbu ko‘rsatuvlar o‘rnini egalladi. Maishiy va ijtimoiy hayotdagi illatlar va nuqsonlarni tanqid ostiga olgan, yengilyumorga asoslangan bu ko‘rsatuvning televideniya paydo bo‘lishi bir jihatdan dasturlarda ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga yordam bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, hayotiy talab ham edi. Hajviy ko‘rsatuvning aynan yoshlar dasturlarida paydo bo‘lishi “Istiqbol egalari” telejurnalining faoliyati bilan bog‘liq. Telejurnalni yanada qiziqarli qilish maqsadida ijodkorlar unda albatta satirik lavhalar bo‘lishiga e’tibor qaratishgan. Rollarni xalq artisti N. Rahimov, B. Ixtiyorov, E. Karimov va boshqalar ijro etganlar.

Umuman, sovet televideniyesining 60-yillari televizion jurnallar formatining mukammallashib borgani bilan xarakterlidir. Oylik, haftalik ko‘rsatuvlarning paydo bo‘lish ham ayni shu yillardan boshlangan. Ijodkorlar vaqt o‘tgani sayin ma’lum bir g‘oyani o‘rtaga tashlaydigan, izchillikka qurilgan ko‘rsatuvlarga davr ham, tomoshabinlar ham ehtiyojmand ekanliklarini tushungan ko‘rinadilar. Televizion jurnallarga boshlovchi-muallifning, ko‘tariladigan mavzu atrofida o‘ziga xos bilim, ko‘nikmaga ega insonning taklif qilinishi yaxshi natija bera boshlagan edi. Ushbu faktning o‘ziyiq ekranda intervyu janrining rivojlanishiga, ko‘rsatuvlarda badihago‘ylikka ko‘proq o‘rin berila boshlanishiga olib keldi. O‘z-o‘zidan bu jarayon ko‘rsatuvlarning g‘oyaviy-badiiy jihatdan ham yaxshilanishiga olib keldi. Bu yillar televideniyesi ma’rifat, tarbiyachilik maqomini olgan edi va bu jihat bolalar uchun tayyorlanadigan ko‘rsatuvlarning ham mundarijasiga singdirilgandi. Shunday ko‘rsatuvlardan biri “Yulduzcha” deb nomlanib (rejissyor -Akmal Haydarov, muallif-Mahfuza Hamidova), unda qahramonlar bobo va uning nabiralari edilar (2). Ular birgalikda topishmoqlar topishar, turli hikoyalar aytishardi. Keyinchachlik ssenariyga xalq ertaklari asos qilib olingan.

Ayni shu yillarda televizion jurnalistikada inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy mavzu yo‘nalishlari paydo bo‘ldi. Salomatlik, sayohat, musiqa haqidagi turkum ko‘rsatuvlar tayyorlanadigan bo‘ldi. 1960-yilning 23-fevralida “Здоровье” (Salomatlik), 18-mart kuni “Kinosayohatchilar klubi” singari ko‘rsatuvlar o‘z faoliyatini boshladi. Bu o‘zi-o‘zidan teletomoshabinlarning talab-istaklariga, xohishlariga mos edi. Milliy televideniylarda ham ularning anologlari paydo bo‘la boshladi.

Sovet televideniyesi mamlakat hayotidagi muhim voqealar oktyabr inqilobi (7-noyabr), mehnatkashlarning xalqaro birdamlik kuni (1-may), proletar dohiysi V. I. Leninning tug‘ilgan kuni (22-aprel), xalqaro xotin-qizlar kuni (8-mart), g‘alaba kuni (9-may), SSSR (22-dekabr), O‘zbekiston Sovet socialistik Respublikasi tashkil topgan kunlarni (24 oktyabr) kunlarni nishonlashga juda katta tayyorgarlik qilardi.

Moskva televideniyesida tayyorlanadigan “Quvnoqlar va Zukkolar klubi” (KVN), “голубой Огонёк”, “Kinopanorama”

singari qator qiziqarli ko'rsatuvlarning milliy televideniadagi variantlari ham tayyorlana boshlandi.

KPSS MKIning 1970-yilda qabul qilingan yopiq qarori televideniada yangi davrni boshlab berdi. Bu qarorga muvofiq mamlakat rahbariyatining televidenie ustidan nazorati kuchaytirildi. Umumiy senzura avjiga oldi, ayniqsa Kosmos va harbiy mavzular borasida qo'shimcha senzura kiritildi. Redaksiyalarni, albatta, KPSS a'zosi boshqarishi qat'iyashtirildi. Ayni shu yili SSSR Ministrlar Sovet qoshidagi televidenie va radioeshittirish komiteti SSSR Ministrlar Soveti qoshidagi Davlat qo'mitasiga aylantirildi. Qo'mitaga S.G.Lapin rahbar sifatida tayinlandi.

70-yillar boshlariga kelib, telejurnalistikada jamiyat hayotida ishchi qiyofasini kuchaytirish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Ko'rsatuvlarga qahramon sifatida ko'proq ishchilar taklif qilina boshladilar. Redaksiyalarning tematik va kalendar rejalaridan ziyolilar haqidagi ko'rsatuvlar deyarli olib tashlandi, madaniyat va san'at haqida ko'rsatuvlar tayyorlash chetga surildi (4, 37). ko'rsatuvlarning asosiy g'oyasiga mamlakat rahbari L.I.Brejnevning "Kichik yer", "Qo'riq", "Tiklanish" singari asarlari singdirila boshlandi. Umuman yetmishinchi yillar televideniyesida oktyabr inqilobining 50-yilligiga bag'ishlangan ko'rsatuv va hujjatli kinofilmlar moni salmoqlidir.

1972-yili respublikadagi iqtidorli yoshlarni kashf qilish maqsadida viloyatlardan tayyorlangan ko'rsatuvlarda ham baynalminallikni targ'ib qilishga intilish juda keng bo'lganini aytib o'tish lozim. Zero ular o'rtasida tashkil etilgan va televideniening eng yaxshi loyihalari darajasiga ko'tarilgan "Marhabo, talantlar!" ko'rsatuvida ham milliylik o'rniga komsomol to'ylarini targ'ib qilish ishlari KPSS Markaziy Komitetining qarorini bajarish, mahalliy studiyalar ishini takomillashtirish uchun Moskva televideniyesi viloyatlardagi shaharlarning studiyalariga original dasturlar, spektakllar, sahnalashtirilgan ko'rsatuvlar, kontsert dasturlarini suratga olishni va yuborishni boshladi.

KPSS Markaziy qo'mitasi yangi "Radioeshittirish va televidenie faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1962) qarorida ijodiy xodimlarning e'tiborini ifoda etishning yangi shakllari va vositalarini izlashga qaratadi. Unda aytilishicha, "Hozirgi vaqtda deyarli har bir sovet kishisi muntazam ravishda radio tinglaydi va har yettinchi yoki sakkizinchi odam televizor tomosha qiladi. Ammo barcha radio va televidenie xodimlari ommani tarbiyalashning eng kuchli vositalariga ishonib topshirilganligini yaxshi bilishmaydi" (15). Dasturlarning mazmuni va televideniening texnik rivojlanishiga bunday diqqat qaratish uning targ'ibot tizimidagi alohida o'rni va jamiyatdagi mavqei hamda ahamiyatining ortib borishini anglash bilan bog'liq edi.

Lekin Xrushchev iliq-miqligi tugab, Brejnevning etni junjiktiradigan ayozlari boshlandi. Bunday davrlarda targ'ibot safarbarligi nafaqat televideniada, balki barcha ommaviy axborot vositalarida ham o'z avj pardasiga etgandi. Ularning barchasi jamoatchilik ongida Sovet socialistik Respublikalari Ittifoqi "butun

dunyoda hammadan oldinda” degan fikrni kuchaytirish uchun ishlab chiqilgandi. Televideniya ishlaydigan jurnalistlar ommaviy auditoriyani dunyodagi eng go‘zal va adolatli mamlakatda yashayotgani uchun baxtli bo‘lishiga ilhomlantirishga chaqirardi. Teleekran orqali namoyish etiladigan ko‘rsatuvlar, tayyorlanadigan hujjatli filmlarda sovet turmush tarzi ulug‘lanardi, ijodkorlar o‘z ijod mahsullarida aynan shu masalaga e‘tibor qaratardilar. Hisobotlarda ijodkorlar qoida tariqasida, tabassumli, baxtli yuzlarni suratga olishlari kerakligi haqidagi tavsiyalar mavjud edi. Masalan, biror ishchi yoki xizmatchi haqida yaratiladigan filmda qahramon o‘z chiqishlarida faqat quvonch, mamnuniyatni ifodalari, film boshidan oxirigacha qahramonning buyuk davlatning bir bo‘lagi ekanligidan faxrlanish hissi bilan to‘lib-toshgan matnlar bilan boytilardi.

Vaqt o‘tgani sayin tomoshabinlarning didlari ham, ko‘rsatuvlarga qo‘yadigan talablari ham orta boshladi. Shu sabab teletomoshabinlarning ko‘pchiligi, ko‘proq shaharlarda yashaydigan va rus tilini yaxshi biladigan aholi Moskva ko‘rsatuvlarini tomosha qiladigan bo‘ldilar, chunki bu ko‘rsatuvlar sifatligi, ko‘rimligi bilan ajralib turardi.

Tashviqot shu darajaga yetgan ediki, sovet kishilari namoyish etiladigan ko‘rsatuvlar, filmlarga ishonishar, haqiqatan ham eng yaxshi hayot Sovet Ittifoqidagina mavjud, sovet kishilari dunyodagi eng baxtli insonlar deb hisoblashardi. Sovet xalqi bu xulosalarga faqat oynai jahonda ko‘rganlari uchungina ishonardi, desak to‘g‘ri emas, buning ustiga sovet kishilaridan faqat ayrim fuqarolar (san‘atkorlar, sporchilardan bo‘lak)gina xorijga chiqish imkoniga ega edilar, qolaversa, axborot dasturlarida chet mamlakatlar haqida xabar berilganida u yerda ishsizlik avjiga olgani, inson o‘rnini robotlar egallab borayotgani, irqiy diskriminatsiya kuchayib ketgani, odamlar ertayu kech namoyishlarga chiqishlari ko‘rsatildilar, lekin bular ham asosiy dalillar o‘rnini bosolmasdi. Sovet davlati o‘z fuqarolari haqiqatan ham o‘zlarini baxtli-saodatli qishilar deb sanashlari uchun mamlakatda yaxshi sharoitlarni barpo qilgan, sotsializm o‘z afzalliklari, sovet tamadduni o‘zining yuksak sifatlarini namoyish eta boshlagandi. Leonid Brejnev davrida 168 mln. kishi uy-joy bilan ta‘minlandi. Jamiyatni demokratlashtirish “Stalin shaxsiyatini qoralash” bilan baravar olib borilardi. Ayniqsa, “kommunistik mehnat uchun” harakati va “kommunistik mehnat brigadalari”ni yaratish, Leninning “sotsializm – bu ommaning tirik ijodi” nomli pozitsiyasiga mos keladigan merosiga murojaat partiya va jamoat ishlarida faol targ‘ibotiga katta ahamiyat berila boshlagandi. Biroq Leninning sotsializm konsepsiyasining zamonaviy sharoitlarga nisbatan chuqur ilmiy ishlanmalari amalga oshirilmadi. 1961-yilda KPSS XX s‘ezdida qabul qilingan partiyaning uchinchi dasturida ko‘plab to‘g‘ri qoidalar bilan birga ibtidoiy, utopik g‘oyalar ilgari surila boshlandi. Bu qarorlarga ko‘ra SSSRda sotsializm to‘liq va yakuniy g‘alabaga erishgan deb hisoblana boshlandi, 1980-yilga kelib kommunizm qurilishi to‘g‘risida g‘oyalar ilgari surildi. Dasturdagi yakuniy

ibora: “Sovet xalqining hozirgi avlodi kommunizmda yashaydi” degan fikrlar zamondoshlarining xotiraloriga ko‘ra, shaxsan Xrushchev tomonidan yozilgan. Unda belgilangan bir qator qoidalar ham progressiv ijtimoiy ahamiyatga ega edi, chunonchi, garchi pravoslav xristian dini ta’limoti qarashlarini aks ettiruvchi “kommunizm quruvchisining axloqiy kodeksi”, qarama-qarshi ijtimoiy tizimlarning tinch-totuv yashashi va sotsialistik mamlakatlarning tinchlik va jahon urushining oldini olish uchun kurashi haqidagi g‘oyalar va qarashlar progressiv ahamiyatga ega edi.

Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti madaniy hayotda o‘z aksini topadi. Jamiyatning umumiy ta’lim va intellektual darajasining o‘sishi, sovet kishisi shaxsining rivojlanishi badiiy ijodda shaxsiy muammolar hamda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar masalalariga muayyan burilishni keltirib chiqardi. 60-yillar boshlarida boshlangan iliq-miliqlik davrida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, insonparvarlik va taraqqiyot muammolari, Real hayot murakkabliklari aks etgan adabiyot yuzaga kela boshladi. V. Shukshin, F. Abramov, V. Rasputin, V. Tendryakov, D. Granin, V. Belov, Yu. Nagibin, G. Semenov, Ch. Aytmatov, N. Dumbadze sinari yozuvchilar shafqatsiz hayotning realliklarini, davrning shiddatli qarama-qarshiliklarini ochib tashladilar. Zamonaviy hayotning shiddatli zarbasi va jamiyatning dolzarb muammolari V. Rozov, A. Arbuzov, M. Roshchin, I. Druse, A. Vampilov va boshqalar dramaturgiyasida o‘z aksini topgan.

O‘zbek televideniyesi sobiq ittifoq televidenielerining bir qismi sifatida yuqorida nomlari qayd etilgan adiblar asarlari tadqiq etilgan, tahlilga bo‘ysundirilgan ko‘rsatuvlar tayyorlar, lekin Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy singari yozuvchilar teleekran orqali ko‘rsatilmadilar. To‘g‘ri, 1969-yilga kelib “O‘zbekfilm” studiyasi A. Qodiriyning shu nomli asari asosida badiiy filmni suratga oldi. Film ham tomoshabinni sovet voqeligiga muhabbatni shakllantirish maqsadida avvalgi kunlar zulmatli kunlar edi, mana o‘tib ketdi, feodal jamiyatida sevgi, muhabbat ana shunday tarzda baxtsiz ravishda nihoyasiga yetardi degan xulosa bilan yakunlangan.

Televidenie orqali namoyishi etiladigan badiiy filmlar ham adabiyot bilan uyg‘un holda rivojlangan, sovet kinosi va televideniyesi tarix va zamonaviylik mavzularidagi yorqin va chuqur asarlar, hayajonli jamiyat, yuksak axloqiy ideallarni tasdiqlardi. Aholining turmush darajasi rivojlangan kapitalistik mamlakatlar o‘rta qatlamlarining turmush darajasiga yaqinlashar edi.

Bu voqealarning hammasi teleekran uchun juda katta va ko‘lamli mavzu bera olar, aynan shu voqealar, tafsilotlar tufayli teleekran qarshisidagi millionlar ertangi kunga ishonch va umid tuyg‘usi bilan yashardilar. Buning ustiga bu televidenie sovet voqeligini ta’kidlovchi adabiyotlar bilan to‘lib toshib ketgandi. Shunga qaramay, bu ekranda Cho‘lpon, Fitrat, jadid adabiyoti vakillari ijodi yoritilmasdi.

Biz shu o‘rinda ulkan tashviqot mashinasi sifatida

televidenie bir taraflama xarakterga ega bo'lgani, juda ko'p mavzular televidenie ekraniga olib chiqilmaganini ta'kidlab o'tamiz. Buni o'tgan asrning 70-yillarida Amerika prezidenti R.Niksonning Moskvaga tashrifi davomida yer yo'ldoshi orqali SSSRdan Amerikaga uzatilgan barcha videolavahalarni tasmaga muhrlab so'ngra respublikalardan malaka oshirish uchun kelgan OAV xodimlariga namoyish qilinganida O'zbekistondan borgan rejissyor M.Mahamedov eslab xotirlaydi: "O'sha paytlarda sotsialistik tuzum inqirozga uchrab o'zining barcha illatlarini namoyish qilayotgan edi. Muxbirlar mana shu qusurlarni qisqa va lo'nda qilib Telstar orqali kichik lavhalarda Amerika xalqiga to'g'ridan-to'g'ri namoyish qilgan edi" (7, 27). Lavhalarda sovet kishisi ust-boshiga kiyim olish uchun 3-4 oy ishlash kerakligi, odamlar navbatda turib, bir stakandan budkada suv ichayotganligi, Rossiyada o'rmon ko'pligiga qaramay, bir martalik qog'oz idishlar, koinotga parvoz qilishsa-da, oddiy igna yetishmasligi, xo'jako'rsinga ishlayotgan bu davlatda aslida uning poydevorini ta'mirlash kerakligi singari lavhalar orqali "amerikalik muxbirlarning nigohi bilan sovet tuzumini, xalqning yashash tarini, turg'unlik davri qusurlarini mahorat bilan, professional darajada ayamay ochib tashlaydi, fosh qiladi" (7, 27). Moskvaning barcha respublikalarida o'z muxbirlari bo'la turib, lekin ular boshqa respublikalarning o'z muxbirlari bilan aloqa o'rnatishlari mumkin emasdi. Markazlashgan axborot manbai barcha uchun qonun darajasiga ko'tarilgan. "Vremya" dasturini ko'rish majburiy edi. Moskvaning axbrot dasturi "Vremya" ketayotgani vaqtda har xil kinolar bilan tomoshabinni chalg'itish hollari yuz berayotgani SSSR teleradioqo'mitasi raisi Sergey Lapin tomonidan qattiq tanqid ostiga olingan edi.

Buning ustiga KPSS milliy siyosatda respublikalarning ko'p millatliligini oshirishga sun'iy e'tibor qaratdi. Ommaviy axborot vositalari respublika qanchalik ko'p millatli bo'lsa, u shunchalik baynalmilal ekanligiga urg'u berar, xalqlarning yaqinlashishi uchun shunchalik shart-sharoit borligini ta'kidlard. Ko'p millatlilikning tabiiy tarixiy emas, balki sun'iy migrasiya tufayli o'sishi barqaror va muqarrar ravishda milliy respublikalar aholisining milliy negizini haqiqiy yo'q qilishga olib keldi, etnik o'ziga xoslik barham topdi. Milliy respublikalarning xalq xo'jaligi taqsimot munosabatlariga asoslangan bo'lib, ular buyruqbozlik usullari bilan amalga oshirildi.

Bu esa mamlakatda bir tomonlama, gipertrofik rivojlangan mintaqalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Masalan, o'zbek iqtisodida paxta monokulturasining yetakchilik qilishi ijtimoiy hayotning barcha qatlamlarida og'riqli holatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu va shunga o'xshash tarixiy adolatsizliklarning ko'plab misollari millatlararo qarama-qarshiliklarning bo'y ko'rsatishiga sabab bo'ldi. Sobiq SSSRda milliy guruhlar 55 milliondan ortiqligiga qaramay, ular na Konstitutsiya, na boshqa partiy-davlat hujjatlari va qarorlarida o'z aksini topmagan edi. Boshqacha qilib aytganda, sovet xalqining

beshdan biri asosiy qonunda umuman qayd etilmas va partiya-davlat ishlarida ishtirok etmasdi. Aynan shu millat vakillari millatlararo to'qashuvlarning markazida bo'lib qoldilar. Muammo nafaqat dolzarflik ahamiyat kasb etardi, balki yana tizimli darajada sovet milliy siyosatidan ham tashqarida edi.

Natijalar va muhokama. Ushbu davrda Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi respublikalarning ko'p millatligini saqlab qolishda milliy siyosatda sun'iy yo'nalishlarga tayanardi. OAVda respublika qanchalik ko'p millatli bo'lsa, u shunchalik ko'proq baynalmilal, ko'proq imkoniyatlarga ega deb hisoblanilardi.

Bu yillarning yana bir xususiyati, ma'lum bir sanalar munosabati bilan yetakchi mafkura siyosatini ko'rsatuvlar g'oyaviy mundarijasiga singdirishda ko'zga tashlanadi. V.I.Leninning 100 yilligi hamda Sho'ro davlati tashkil topganining 50 yilligi tantanalari munosabati bilan O'zbekiston TVsi dasturlarida proletar dohiysining faoliyatiga bag'ishlangan, zamonasoz ko'rsatuvlarning nihoyatda ko'plab tayyorlanganini eslash o'rinli.

Bu fikrimizni teletanqidchi A. Ubaydullaevning quyidagi fikrlari ham tasdiklaydi: "Turg'unlik yillarining belgilaridan biri ko'pchilik asarlar ma'lum bir sanalar bilan bog'liq ravishda yuzaga kelganligidir. Shunga qaramasdan o'sha yillar teleteatrdan o'ziga xos "uyg'onish davri" bo'ldi, desak xato bo'lmas"(14, 71). Darhaqiqat, rejissyor M.Mahkamovning "Volodya Ulyanov" (Nechvolodov va Reznichenko asarlari asosida) qissasi asosida sahnalashtirilgan 7 qismli telespektakl orqali O'ztsivida ko'p qismli telespektakllarga asos solindi.

70-yillarning oxiriga kelib, mamlakatda boshlanayotgan siyosiy va iqtisodiy inqirozlar tufayli TV orqali publisistik ko'rsatuvlarni tayyorlashga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Mamlakatning biron sohasidagi muammolar yuzakigina qalamga olinib, so'ng "partiyaning aralashuvi" bilan barham topgan kamchiliklar haqida ko'rsatuvlar tayyorlana boshlandi. Ko'rsatuvga tanlangan janr, ya'ni telebahr nisbatan kam uchrasada, lekin u nihoyatda mashhur. Ushbu janr tomoshabinni nafaqat ochiq muhokamaga chorlash, shuningdek, domiga tortadigan qarama-qarshi fikrlar bilan xarakterlanadi. Qo'yilayotgan savolning o'tkirligi, muammoni har tomonlama ko'rish, haqiqatni xotimada emas, balki ko'rsatuvning borishi jarayonida topish va, albatta, bahsli savol muhokamasida ishtirok etish imkonini bergan bu shakl boshlovchining mahoratli aralashuvi oqibatida juda samimiy fikriy tortishuvlarga sabab bo'lishi mumkin. Taniqli televidenie amaliyotchilari va tanqidchilari ko'p bor ta'kidlaganlaridek, ko'rsatuvning u yoki bu qadr-qimmati tomoshabinga o'tkazilgan taassurotlar sifati bilan o'lchanadi. "Auditoriyaga ta'sir ko'rsatishni istagan jurnalist, birinchi navbatda uning qiziqishlaridan kelib chiqib ishlashi talab etiladi. Bunda u yoki bu ko'rsatuvlarning mediao'lchovlari natijalarini bilish kamlik qiladi – jurnalist yoki boshlovchi o'zi murojaat qilayotgan odamlarning hayot tarzini yaxshi bilishi lozim" (12, 113) aynan shu talablarga javob bergan "bahs"ning ilk boshlanishini maishiy mavzular – sevgi, muhabbat,

sadoqat singari azaliy qadriyatlarga bag'ishlangan edi. Uning dastlabki sonlaridayoq tomoshabinlar e'tiboriga tushishi bu mavzularning talqinida yozuvchining o'ziga xos fikrlashi hamda studiyaga to'plangan auditoriya bilan bahslash olishi, ishtirokchilarga o'z fikrini bildirish, bahs imkonini yaratishga intilishi, davraga tayyor fikrlarni tashlash emas, balki har turdagi fikrlarni rad etmagan holda, umumiy bo'lgan xulosalar chiqara olishi tufaylidir. Davrada turli-tuman qarashlar, fikr va munozaralar bahsini ushlab turish o'tkir Hoshimov tomonidan o'ziga xos muvaffaqiyatli ado etildi, deb hisoblash mumkin.

Xulosa. Qariyb o'ttiz yilni qamrab olgan o'zbek televideniesining shakllanish jarayonlari, ilk ko'rsatuvlarning tayyorlanishidan tortib murakkab loyihalarni taqdim qilishi, jurnalistika va san'atning talay qirralarini o'zida jam qilgani holda kelajagi haqida hali bashorat qilib bo'lmaydigan "moviy ekran"ning 80-yillarning o'rtalariga kelib ommaviy axborot vositalarining eng ta'sirchani, eng tezkoriga aylanish jarayonlarini tadqiq qilishning o'zi murakkab.

O'zbek televideniesi sovet televideniesining tarkibiy qismi sifatida sovet jamiyatining boshqa iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy muassasalari singari, yagona markazdan boshqariladigan markazlashgan ierarxik tizimning tarkibiy qismi edi. Markaziy, respublika va mahalliy (mintaqaviy) televizion eshittirishlarni o'z ichiga olgan sovet televideniesining butun tizimi SSSR Ministlar Soveti huzuridagi televidenie va radioeshittirish Davlat qo'mitasiga bo'ysunar va o'z-o'zidan qo'mitaga partiyaning mafkuraviy ishida televidenie va radioning rolini oshirish, butun mamlakat bo'ylab tele va radioeshittirishlarni markazlashtirish vazifasi yuklatilgan edi. 70-yillarning oxiriga kelib o'zbek tomoshabinlari ikki dastur bo'yicha ko'rsatuvlarni tomosha qilish imkoniga ega edi.

Birinchi dastur orqali butun ittifoqqa axborot, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy dasturlar tayyorlanib ularda mamlakat, shuningdek xorijdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy voqalar tafsilotlari berib borilardi. 1985-yilgacha bo'lgan davrda sovet televideniesi yagona umumdavlat instituti hisoblanardi. Davlat hisobidan moliyalashtirish, markazlashtirilgan ierarxik tuzilma va ma'muriy boshqarish usullari ushbu institutning asosiy printsiplari sanalardi. Bu sovet davlatining eng muhim mafkuraviy instituti bo'lib, u ommaviy axborot, targ'ibot orqali xalqni kommunistik tarbiyalashning samarali vositasi maqomiga ega edi. "Avtoritar", "davlat-monopolistik", "totalitar" deb ham ataladigan televideniening ushbu davlat modeli SSSRda 90-yillarning boshlariga qadar, tijorat televideniesi davri televizion makonga kirib kelguniga qadar mavjud bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asadullaev M. Televideniening nazariy va amaliy asoslari. — Toshkent: Mumtoz so'z. 2021. — 201 b.

2. “Boshlang, siz efirdasiz!”, “O‘zbekiston” telekanalining ilk xodimlari televideniени qanday eslashadi — URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2022/07/27/television/>
3. Деревецкий В. Многоцветный экран ТВ. — М.: Искусство, 1977. — 111 с.
4. Егоров В.В. Телевидение. Страницы истории. — М.: Аспект Пресс, 2004. — 208 с.
5. Каримов А. Телевидение Узбекистана. — Т.: Узбекистан, 1973. — 68 с.
6. Кузнецов Г.В. ТВ-журналистика: Критерии профессионализма. — М.: Изд. РИП-холдинг, 2002. — 113 с.
7. Махамедов М., Умр лаҳзалари. — Тошкент: Адабиёт учкунлари нашриёти, 2018 й. — 300 б.
8. Молодежь разных народов (1 февраль 1957). «Готовьтесь к празднику юности» (9 февраль, 11 февраль 1957). Ўзбекистон Республикаси Давлат Марказий архиви материалларидан.
9. Раҳматуллаева И. Элбек Мусаев: «Эллик йил кўрқиб яшагандан, рост гапириб бир кун яшаган яхши» //Даракчи газетаси, № 2, 09.01.2003. 44-45 б.
10. Телевизионная журналистика. Учебное пособие для студентов вузов/ Под редакц. Ю. И. Долговой, Г. В. Перипичиной. — М.; Аспект Пресс, 2022. — 208 с.
11. Толстой Л. Н. — URL: <https://millionstatusov.ru/aut/tolstoi/t/voina-i-mir.html>
12. Убайдуллаев А. Ойнаи жаҳон истикболлари. — Т.: Фан, 1993. — 78 б.
13. Ўзбекистон Республикаси санъат арбоби Элбек Мусаев билан суҳбатдан. «Даракчи» газетаси, № 2, 09.01.2003. 44-45 б.
14. Ўзбекистон халқ артисти Галина Мельникова билан суҳбатдан. «Убай Бурхон» видеофильми учун ёзилган кўрсатув. 2021 й. 17 октябрь.
15. <https://stream-park.ru/blog/razvitie-sovetskogo-televideniya/>

References

1. Asadullaev M. *Televideniening nazariy va amaliy asoslari* (Theoretical and practical foundations of television), Tashkent: Mumtoz suz. 2021, 201 p.
2. *Boshlang, siz efirdasiz!, Uzbekiston telekanalining ilk xodimlari televideniени qanday eslashadi* (Start, you're on the air!, How the first employees of the Uzbek TV channel remember television), available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2022/07/27/television/>
3. Dereveckij V. *Mnogocvetnyj jekran TV* (Multicolor TV screen), Moscow: Iskusstvo, 1977, 111 p.
4. Egorov V.V. *Televidenie. Stranicy istorii* (Television. Pages of history), Moscow: Aspekt Press, 2004, 208 p.
5. Karimov A. *Televidenie Uzbekistana* (Television of Uzbekistan) Tashkent: Uzbekistan, 1973, 68 p.

6. Kuznecov G.V. *TV-zhurnalistika: Kriterii professionalizma* (TV journalism: Criteria of professionalism), Moscow: Izd. RIP-holding, 2002, 113 p.
7. Mahamedov M. *Umr lahzalari* (Moments of life), Tashkent: Adabijot uchkunlari nashrijoti, 2018, 300 p.
8. *Molodezh' raznyh narodov (1 fevral' 1957). Gotovtes' k prazdniku junosti (9 fevral', 11 fevral' 1957). Uzbekiston Respublikasi Davlat Markazij arhivi materiallaridan* (From the materials of the state central archive of the Republic of Uzbekistan.).
9. Rakhmatullaeva I. *Darakchi* newspaper, No. 2, 09.01.2003, pp. 44-45.
10. *Televizionnaja zhurnalistika* (Television journalism), Moscow: Aspekt Press, 2022, 208 p.
11. Tolstoj L. N., available at: <https://millionstatusov.ru/aut/tolstoi/t/voina-i-mir.html>
12. Ubajdullaev A. *Oynai zhahon istikbollari* (Oynai World prospects), Tashkent: Fan, 1993, 78 p.
13. *Uzbekiston Respublikasi sanat arbobi Jelbek Musaev bilan suhbatdan* (From an interview with the artist of the Republic of Uzbekistan Elbek Musaev), *Darakchi* newspaper, No. 2, 09.01.2003, pp. 44-45.
14. *Uzbekiston halk artisti Galina Mel'nikova bilan suhbatdan. Ubaj Burhon videofil'mi uchun jozilgan kursatuv* (From an interview with people's artist of Uzbekistan Galina Melnikova. A show composed for the Ubey Burkhan), 2021, 17 oktjabr'.
15. <https://stream-park.ru/blog/razvitie-sovetskogo-televideniya/>